

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Xoliqulova Aziza Norqo'chqor qizi*

*Termiz shahar Iqtisodiyot va servis universiteti*

*Boshlang'ich ta'lim 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda matn bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari, nutq va uning ifodalanish, og'zaki va yozma nutq yuzasidan olimlarning munosabati haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar.** Nutqiy kompetensiya, matn bilan ishlash, nutq va uning ifodalanishi, og'zaki va yozma nutq, grammatik bilim va ko'nikma, boshlang'ich sinf o'quvchilari.

“Mamlakatimizda yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug' maqsadga erishish yo'lida asosiy tayanchimiz bo'lgan azmu – shijoatli yoshlarga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidor va salohiyatlarini to'liq namoyon qilishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi”.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta'lim tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi” PQ-4884-sonli qaroriga muvofiq maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim o'quv dasturlari va fanlarining uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash hamda “Ona tili va o'qish savodxonligi” fani Milliy o'quv dasturi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 9-dekabrdagi “Umumiy o'rta ta'lim Milliy o'quv dasturining dastlabki loyahasini tasdiqlash va tajriba-sinov o'tkazish to'g'risidagi” 298-sonli buyrug'i asosida Respublikamizning barcha ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflari uchun yangi talqindagi hozirgi zamon talabiga birmuncha mos keluvchi darsliklar yaratilib, amaliyotga joriy qilindi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda matn bilan ishlashning o'ziga xos qiyinchiliklari mavjud. Negaki matn tuzishda gaplarni fonetik, morfemik, morfologik, sintaktik jihatdan tahlil qilish uchun dastavval nutqqa oid qonun-qoidalarni puxta egallash zarur. Demak o'qituvchi mashg'ulotlari davomida o'quvchilarga nutqiy kompetensiyani shakllantirishda ma'lumotlarni tushunarli, ravon tilda yetkazib, mashqlar orqali mustahkamlab borsa, matn ustida ishlashni o'rgatish qiyin kechmaydi.

Boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga berilgan grammatik bilim va ko'nikma nutqqa hamda imloga oid malakalar o'quvchilar tomonidan aytilgan ayrim so'z, gaplardagina

emas, balki mantiqiy fikrlangan holda keltirilgan misollarda bayon va inshoda qo'llansagina, puxta o'zlashtirilgan hisoblanadi. O'quvchida mustaqil matn yaratish malakasini hosil qilish uchun, avvalo uning og'zaki nutqini o'stirish yuzasidan ish ko'rish lozim. Chunki o'quvchining og'zaki nutqi qanchalik taraqqiy etgan bo'lsa, bu uning yozma nutqida ham o'z aksini topadi.

M.Hamdamonaning "1-2-sinf o'quvchilarining og'zaki va yozma nutqini o'stirish tizimi" mavzusidagi ilmiy ishi 1-2-sinf o'quvchilarini og'zaki va yozma nutqini o'stirishning mantiqiy va ilmiy asoslangan tizimni ishlab chiqishga qaratilgan hisoblanadi[.]. Boshlang'ich sinfda leksik ma'no, bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, uyadosh so'zlar, paronimlar haqidagi ma'lumotlar amaliy tarzda o'zlashtiriladi. So'z ustida ishlash boshlang'ich sinf o'quvchilarining lug'aviy birliklarni o'zlashtirish, fikr maqsadiga muvofiq qo'llash madaniyatini egallashlarini, keyinchalik esa barcha fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

Nutq o'stirish masalasi T.Ashrapova, M.Odilovalarning darsligida alohida ko'rib chiqilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, K.Qosimova bosh muallifligida yaratilgan "Ona tili o'qitish metodikasi"da boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirish metodikasi alohida bo'lim sifatida ajratilib, nutq o'stirishning metodik shartlari, aspektlar, yo'nalishlari hamda so'z, gap va bog'lanishli nutq ustida ishlash metodikasi keng yoritilgan.[.] Darslikda nutq o'stirish metodikasining vazifasi o'quvchilarda o'zaro aloqaga, atrofdegilar bilan so'zlashish – kommunikatsiyaga ehtiyoj va qiziqishni yuzaga keltirishi kerakligi qayd etilgan. Shundagina bolaning nutqi asta-sekin rivojlanib, unda o'z nutqiga e'tibor berish hissi paydo bo'ladi. Nutq o'quvchiga nafaqat boshqa kishilar bilan aloqa qilishga yordam beradi, nutqni egallash – bu borliqni anglash vositasi hamdir.

Nutq – odamlarning moddiy tub o'zgaruvchan faoliyati jarayonida tarixan vujudga kelgan, til vositasida namoyon bo'luvchi muloqot shakli sanaladi. Nutq bir qancha vazifalarni bajaradi: belgi – har bir so'z muayyan mazmunga ega bo'ladi. Xabar – ma'lumotlar, bilimlar va tajribalarni yetkazish. Ifoda – ohang, urg'u, so'z tuzilishi, maqollar va qiyoslardan foydalanish va boshqalar orqali his-tuyg'ular, ehtiyoj va munosabatni namoyon qilishdir. Ta'sir – vazifalarni bajarishga, faollik ko'rsatishga va qarashlarni o'zgartirishga undash. Nutq vazifalari turli shakllarda turlicha namoyon bo'ladi.

Psixologik nuqtai nazardan qarasak, odamning oliy psixik funktsiyalari tizimida – uning tafakkur, ong, xotira, hissiyotlar va boshqalar bilan o'zaro munosabatida nutqning o'rni qiziqish uyg'otadi. Bunda uning shaxs tuzilishi va faoliyatini aks ettiruvchi xususiyatlari ayniqsa muhim sanaladi. Aksariyat psixologlar nutqni faoliyatning yaxlit hodisasi (agar u faoliyatning boshqa turlari bilan amalga oshmaydigan o'ziga xos motivatsiyaga ega bo'lsa) yoki nutqiy bo'lmagan faoliyatga

kiritilgan nutq harakatlari ko‘rinishida namoyon bo‘luvchi nutqiy faoliyat sifatida ko‘rib chiqadilar.

Nutq – inson faoliyati turi, lisoniy vositalardan foydalanish asosida fikr bildirish usulidir. Bu funksiyalar nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi hech kimga sir emas. Erta bolalik davrida bolada muloqotga ehtiyoj paydo bo‘ladi, buni u eng sodda nutq vositalari orqali qondiradi. Avvalo, nutq ijtimoiy hodisa, muloqot vositasi sifatida yuzaga keladi, keyinroq tevarak olamni bilish, o‘z xatti-harakatlarini rejalashtirish vositasi sifatida ham namoyon bo‘la boshlaydi. Bola fiziologik rivojlanar ekan, borgan sari murakkabroq til birliklaridan foydalanadi. Ayni vaqtda mazkur lisoniy vositalardan tobora murakkablashib borayotgan bilimlarni olish, ulardan faoliyat jarayonida atrofdagi odamlar bilan muloqot qilishda foydalanadi.

Biroq bola nutqining rivojlanishi o‘z-o‘zidan sodir bo‘ladigan jarayon emas. Bolada nutq rivojlanishining birinchi sharti uning muloqot yoki kommunikatsiyaga bo‘lgan ehtiyojidir. Demak, nutqni rivojlantirish uslubiyatida nutq motivatsiyasini belgilab beruvchi, o‘quvchini o‘z fikrini aytishga undovchi, unda nimanidir aytib berishga qiziqish va xohish uyg‘otuvchi vaziyatlar nazarda tutilishi lozim. Lekin muloqot faqatgina barcha uchun tushunarli belgilar, ya’ni, so‘zlar, ularning birikmasi, turli nutq iboralari yordamida vujudga kelishi mumkin. O‘z navbatida, bolalarga nutq namunalarini berish yoki nutq muhitini yaratish lozim. Bu bola nutqini rivojlantirish uchun ikkinchi muhim shart sanaladi. Bolaning so‘z boyligi, nutqi ravonligi, to‘g‘riligi va rang-barangligi ko‘p jihatdan nutq muhiti qandayligiga bog‘liq bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13- iyuldagi “Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora - tadbirlar to‘g‘risida”gi PF 6260-son Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 6- noyabrdagi “Ta’lim- tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora- tadbirlar to‘g‘risidagi” PQ-4884-sonli qarori.
3. Xalq ta’limi vazirining 2020-yil 9-dekabrdagi “Umumiy o‘rta ta’lim Milliy o‘quv dasturining dastlabki loyahasini tasdiqlash va tajriba-sinov o‘tkazish to‘g‘risidagi” 298-sonli buyrug‘i.
4. Ashrapova T. , M.Odilova “Nutqni o‘stirish”. O‘quv qollanma. T.:2007. 154 b.
5. Qosimova K., Mavlonova K, Quronov S va b “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 3-sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma , -Toshkent 2022 ,154 bet
6. Hamdamova M. “1-2-sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish tizimi” dissert. Avtoreferati. P.f.f.d.(PhD) Toshkent-2007.
7. Mavlonova K, Quronov S. va b. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” 3- sinf o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma , -Toshkent 2022 ,154 bet